XALQ DEPUTATLARI YANGIOBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-146-3-54-K/25 Yangiobod tumani

2026-yil uchun Yangiobod tumanining mahalliy byudjeti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni, xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02-01-01-178-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yangiobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining **“2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi** O‘RQ-1105-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Mazkur qarorga muvofiq, Yangiobod tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **31 506 285 ming** so‘m va xarajatlari esa **66 481 790 ming** so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Yangiobod tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **266 000 ming** so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3.Yangiobod tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq, tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq, 2026-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori **3-ilovaga**

muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman byudjeti zahira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **657 041 ming** so‘m miqdorida belgilansin.

5.Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **(R.Abdug‘aniyev)**, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari **(B.Normatov)**, tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i **(A.Suyunov)** bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjet uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6.Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7.Mazkur qaror rasman ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8.Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

9.Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiobod tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi riasi **H.Qudratov** hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **R.Abdug‘aniyev** zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi

QARSHIBOYEV IBROHIM BOLTAYEVICH

Xalq deputatlari Yangiobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-146-3-54-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yangiobod tumani mahalliy byudjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Mahalliy reja
JAMI		**31 506 285**
1.	Foyda solig‘i	453 000
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	1 953 000
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	15 583 173
4.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	263 800
5.	Aksiz solig‘i jami	973 000
5.1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	*0*
5.2	*pivo*	*0*
5.3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*973 000*
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	593 000
7.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	1 573 892
8.	Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	1 498 125
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	5 795 368
10.	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	82 700
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314 400
12.	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	144 827
13.	Davlat boji	946 000
14.	Yig‘imlar	366 000
15.	Jarimalar	960 000

16.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	6 000

Xalq deputatlari Yangiobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-146-3-54-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Yangiobod tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Yangiobod tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**66 481 790**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	17 369 372
	shundan:	
1.1	*“Mening maktabim”*	*1 174 200*
2.	Madaniyat bo‘limi	3 327 177
3.	Yoshlar ishlari bo‘limi	1 280 881
4.	Sport bo‘limi	3 254 951
5.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 397 186
6.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 729 897
7.	Irrigasiya bo‘limi	254 414
8.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi saqlash xarajatlari	2 588 909
9.	Hokimiyat	18 580 913
	shundan:	
9.1	*“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi*	9 888 000
9.2	*“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari*	566 000
9.3	*Zahira jamg‘armasi*	657 041
10.	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	820 598
	shundan:	
10.1	*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi saqlash xarajatlari*	*0*
10.2	*Axborot-kutubxona markazi*	*820 598*
11.	Obodonlashtirish boshqarmasi	15 877 492

Xalq deputatlari Yangiobod tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-146-3-54-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun ajratma me’yorlari
P R O G N O Z I

foiz hisobida

№	Tuman nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)			
		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1.	Yangiobod tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100 %	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%

3-ilova davomi

foiz hisobida

№	Tuman nomi	Pivo				Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1.	Yangiobod tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%

3-ilova davomi

foiz hisobida

№	Tuman nomi	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar	
		Tuman byudjetiga		Viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB						
1.	Yangiobod tumani	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

3-ilova davomi

foiz hisobida

№	Tuman nomi	Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga
1.	Yangiobod tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Xalq deputatlari Yangiobod tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-146-3-54-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Yangiobod tumani mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so‘mda

№	Tuman nomi	Mahalliy byudjetlarning jami daromadlar	shundan		Mahalliy byudjet xarajatlari
			Mahalliy byudjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
1.	Yangiobod tumani	66 481 790,0	31 506 285,0	34 975 505,0	66 481 790,0

Yangiobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari **R.Abdug‘aniyev.**

Yangiobod tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari **B.Normatov.**